

HARBIY TA'LIMDA GUMANITAR, IJTIMOIIY-IQTISODIY FANLAR VA CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASI

TOUQBYU tillar kafedrası o'qituvchisi
Sh.I. Yertayev

Dariy tili harbiy terminlari tavsifi

Annotatsiya. Mazkur maqolada dariy tili harbiy terminlari tavsifi ilmiy jihatdan yoritilgan, shuningdek dariy tiliga oid harbiy terminlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: dariy tili, leksika, harbiy soha, termin, harbiy tuzilma, affiksatsiya, kompozitsiya, leksikalizatsiya.

Аннотация. В данной статье раскрыта характеристика военных терминов языка дари с научной точки зрения, а также сущность и значение военных терминов в языке дари.

Ключевые слова: язык дари, лексика, военная сфера, термин, военные соединения, аффиксация, композиция, лексикализация.

Dariy tili (*forsi-ye kobuliy*) Afg'oniston Islom Respublikasining davlat tillaridan biridir. Biz bilamizki, Afg'onistonda ikkita rasmiy davlat tili - dariy va pushtu tili mavjuddir. Hozirgi dariy tili fors va tojik tillari bilan qarindosh til hisoblanadi. Afg'onistonda 20 dan ortiq tillar va 200 dan ortiq shevalar mavjud. Mavjud konstitutsiyaga muvofiq, pushtu (afg'on tili) va dariy (forsi-kobuliy, fors tilining afg'on shevasi) tillari Afg'onistonning rasmiy tillari hisoblanadi. Har qanday tilning lug'aviy tarkibi, uning jami so'z boyligi mazkur millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. U doimo harakatda va o'sishda bo'ladi. Tilning rivojlanish sababi esa, asosan ikki omilga, uning ichki va tashqi o'sish manbalaridan qanday foydalana bilishga bog'liq bo'ladi. Shu jumladan, dariy tili leksikasida harbiy sohaga oid terminologik tizim yuzaga kelgan va u amalda qo'llanilmoqda. Shu bois dariy tilidagi bor mavjud va yangi kirib kelayotgan harbiy soha terminlarini o'rganish va ularni kursantlar bilan amaliyotga tatbiq qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Shu kunga qadar dariy tilida harbiy terminlar mavzusiga oid ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan va hozirda ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Dariy tilidagi yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar bo'yicha X.Xoshimbekov¹ va X.Uralovlar² ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Bundan farqli o'laroq sobiq ittifoq davrida yaratilgan G.G. Aliyevning "Персидско-русский и русско-персидский военный словарь"³ M.F.Slinkin muallifligida chop etilgan va 40000 ga yaqin so'z va iboralardan tashkil topgan "Русско-дари военный и технический словарь"⁴ kitobi va dariy tilidagi harbiy terminlar qisman yoritib ketilgan A.Quronbekov va B.Boltayevlarning "O'zbekcha va dariycha so'zlashuv kitob"⁵ lari shular

¹Xoshimbekov X. Актуальные вопросы терминологии языка дари (проблема усвоения заимствований). Канд. дис. Москва. 1967-220б.

²Уралов X. У. Научно-техническая терминология современного языка дари. Канд. дис. Москва.,1974-230б

³Г.Г.Алиев персидско-русский и русско-персидский военный словарь. Москва.воениздат, 1972-656б.

⁴М. Ф. Слинкин"Русско-дари военный и технический словарь".,Москва., Воениздат, 1981-246б.

⁵А.Қуронбеков ва Б.Болтаевларнинг "Ўзбекча ва дарийча сўзлашув китоби"Тошкент., ТошДШИ 2007-118б.

jumlasidandir. Dariy tilidagi harbiy terminlar mavzusi to'liq o'rganilmaganligi sababli ular fonetik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilishni va ilmiy tekshirish ishlari, alohida ma'ruzalar, terminologiya bo'yicha qator qo'llanmalar, lug'atlar yaratishni talab qiladi.

Harbiy terminologiya leksik vositalar sistemasi bo'lib, harbiy fan va maxsus muloqot vositasi hisoblanadi⁶. Harbiy terminologiya leksikaning pereferiy qatlami va shuningdek, umumiy leksika bilan chambarchas bog'liqdir⁷. Harbiy faoliyat va harbiy fan bir-biridan farq qiladi. Harbiy terminologiya esa taktik, harbiy tuzilma (boshqaruv organlari), harbiy-texnik va barcha (quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari, harbiy dengiz kuchlari, chegara) qo'shinlar turlari terminlariga bo'linadi. Harbiy fan va texnika hozirda tezlik bilan rivojlanayotganligi sababli harbiy terminologiya ham rivojlanib bormoqda.

Dariy tilida harbiy terminologiya hali maxsuslashtirilmagan va Afg'oniston lug'atlarida turg'unlashmagan. Harbiy terminlar o'zining lug'at boyligi va chet tillardan o'zlashgan o'zlashmalar hisobiga to'ldiriladigan murakkab tizimdir. Terminologik leksikani termin so'zlar otlar, fe'llar hamda terminologik so'z birikmalari tashkil qiladi. Bu ikki katta terminologik guruh hozirgi dariy tilining fonetika, morfologiya va sintaksis qoidalari asosida tuziladi. Hozirgi dariy tilida tub harbiy terminlar bilan birga o'zlashma terminlar faol qo'llanilmoqda. Bu hodisa o'tgan asrning oxirgi yillarida Afg'onistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar va harbiy to'qnashuvlar natijasida rivojlanishni boshladi. Hozirda esa bu jarayon Afg'oniston Islom Respublikasi hududida xalqaro tinchlikparvar (ISAF) kuchlarining joylashtirganligi bilan faollashib ketdi.

Hozirgi dariy tilida biz quyidagi harbiy terminlar turlari mavjudligini kuzatdik:

1. Tub terminlar
2. Yasama terminlar
3. Murakkab terminlar (qo'shma so'zlar)
4. O'zlashma terminlar.

1) Tub terminlar deb tarkibida birgina leksik ma'noli qism (leksik morfema) bo'lgan terminlarga aytiladi. Tub terminlar ichida sof dariycha so'zlar u qadar ko'pchilikni tashkil etmaydi, chunki Afg'oniston qurolli kuchlarida pushtu zamon zobitlarning nufuzi baland bo'lgan va shu sababli harbiy terminlarning aksariyat qismi pushtuncha shaklida qo'llanilib kelinmoqda. Masalan:

اردو	[ordu]	armiya
آلارم	[ālārm]	ogohlantirish(trevoga)
ككند	[kandak]	batalon
لوا	[levā]	brigada
فرقه	[ferqe]	diviziya
تولای	[tulay]	bo'lim(zveno)
قوماندان	[qomāndān]	qo'mondon
غند	[g`und]	polk
تولای	[tulay]	rota
کریچ	[karič]	qilich

⁶Л.Н. Киселева. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-1256

⁷Л.Н. Киселева. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-1256

ضابط	[zābet]	ofitser
چقوری	[čəquri]	xandaq(okop)
حمایه	[hemāye]	mudofaa
احتیاط	[ehtiyāt]	zahira
مرمی	[marmi]	o‘q(snaryad)
گزمه	[gazme]	tungi qorovul
پهرا	[pahra]	post
سنگر	[sangar]	xandaq(okop)
فیر	[fir]	o‘q otish
برچه	[barče]	nayza- pichoq
درستیز	[darstiz]	shtab

Dariy tildagi mavjud so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirish va ularga harbiy ma’no bag‘ishlash bilan vujudga kelgan tub terminlar. Bunday tub terminlar dariy tilida ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan:

صنف	[senf]	“sinf” va “tur” ma’nosini bildiradi; - harbiy termin ma’nosida esa “qo‘shin turi”
حق	[haq]	“huquq” va “haq” ma’nosini bildiradi; - harbiy termin ma’nosida esa “zaryad”, “o‘qlash”
پرتاب	[portāb]	“tashlash” va “irg‘itish” ma’nosini bildiradi; - harbiy termin ma’nosida esa “uchirish”(raketa va b.)
مسافه	[masāfa]	“masofa” ma’nosini bildiradi; - harbiy termin ma’nosida esa buyruq “masofa ol”
پارچه	[pārche]	“qism”, “parcha” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “detal”, “qism”
فرقه	[ferqe]	“firqa”, “guruh” va “sekta” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “diviziya”
تشکیلات	[taškilāt]	“tashkilot” ma’nosini bildiradi;- harbiy termin ma’nosida esa “shaxsiy tarkib”, “qurol-aslaha” va b.
خاست	[xešt]	“g‘isht”, “quyma” va “nayza” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “zatvor” (qurol zatvori).
کشف	[kašf]	“kashf”, “ixtiro” va “topilma” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “razvedka” va h.k.
رفتار	[raftār]	“harakat”, “qiliq” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “marsh”
رخصت	[rohsāt]	“ta’til”, “ruhsat” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “ta’tilga chiqish”
پوسته	[puste]	“qatlam”, “qobiq”, “qazg‘oq” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “post”
گشت	[gašt]	“sayr qilish”, “kezish” ma’nosini bildiradi; - harbiy termin ma’nosida esa “tungi qorovul”
چاپ	[čāp]	“chop”, “terish”, “bosish” ma’nosini bildiradi; -harbiy termin ma’nosida esa “kalibr”

2) Dariy tilidagi yasama terminlar soʻz yasovchi qoʻshimchalar ya'ni affikslar yordamida yasalgan harbiy terminlardir. Adabiyotlarda agar soʻzlar (terminlar) biron bir qoʻshimcha qoʻshish orqali yasalgan boʻlsa, yasama soʻz (مشد تق) deyilishi aytib oʻtilgan⁸.

Affikslar yordamida koʻplab ot va sifatga doir terminlar vujudga kelgan. Taniqli afgʻonshunos olim L.N.Kiseleva oʻzining “Язык дари афганистана» asarida dariy tilida soʻz yasalishining quyidagi usullarini ajratadi: affiksatsiya, kompozitsiya, leksikolizatsiya va semantik usul⁹. Bular ichida affiksatsiya bilan kompozitsiya usulini asosiy usul deb qaraydi. Dariyshunos olim L.N.Kiseleva oʻz asarida 16ta soʻz yasovchi (derevativ) affikslarni sanab oʻtadi. Bizga ma'lumki bu affikslar ot va turli soʻz turkumlariga oid soʻzlar va terminlarni yasaydi va bu affikslarning hammasi ham harbiy terminlarning yasalishida ishtirok etavermaydi. Ba'zi prefikslar ishtirokida yasalgan harbiy terminlarni misol keltiramiz.

Masalan:

1	هم	[ham]	“ham”, “birga”	همجوار [hamjavār]	qoʻshni
2	پيش ش	[piš]	“old”, “oldi”	پيشدار [pišdār]	avangard
3	خود	[xod]	“oʻz”, “oʻzi”	خودکار [xodkār]	avtomat
4	با	[bo]	“bilan”, “birga”	بامان [bāamn]	havfsiz
5	بر	[bar]	“ga”, “da”	برعهده [barohde]	zimmasida
6	بي	[bi]	“...siz”	بي سلاگد [bipaslagad]	tepkisiz
7	نا	[nā]	“...siz”	نالمانی [nāamni]	ishonchsizlik
8	زی ر	[zir]	“osti”, “tagi”	زیر دست [zirdast]	boʻysunuvchi
9	به	[be]	“...ga”	بحکم به [behokme]	buyrugʻiga binoan
10	پر	[por]	“toʻla”	پر شیب [poršib]	tik qiyalik
11	پی	[pey]	“iz”	جوی پی [peyjuyi]	qidiruv
12	سر	[sar]	“bosh”	سرقاتار [sarqatār]	kolonna boshi
13	غی ر	[γeyr]	“boshqa”	غیرمسد تور [γeyremas tur]	ochiq (nishon)
14	نیم	[nim]	“yarim”	نیم مسد تور [nimemastur]	yarim yopiq

L.N.Kiselevaning yuqorida zikr etilgan ishida 67ta soʻz yasovchi suffikslar borligi qayd etilgan, lekin ularning koʻpi kammahsuldir¹⁰. Harbiy terminlarning yasalishida asosan sermahsul suffikslar va yarim affikslar ishtirok etadi. Biz bunday suffikslar va yarim affikslar soni 20dan ortiqroq deb tahmin qildik. “Soʻz yasovchi (derevativ) suffikslar eroniy (fors, tojik va dariy) tillarining boyligi hisoblanadi”¹¹.

⁸Куронбеков А. Форс тили лексикологияси. Тошкент.. ТошДШИ.2009-1206

⁹Л.Н. Киселева. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-1256

¹⁰Л.Н. Киселева. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-1256

¹¹Л.Н. Киселева. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-1256

Harbiy terminlar yasashida ishtirok etadigan shunday suffikslarning ba'zilarini keltirib o'tamiz. Masalan: abstrakt otlarni va otlashgan sifatlarni yasovchi-ى [i] va-ى [gi] (جا سوسى [jāsusi], سىرى [seri]). Narsa-buyum otini yasovchi affikslar-دان [dān] (باروتدان [bārutdān]). Shaxs otini yasovchi affikslari-چى [či]; ك- [kār]; ر- [gar]; وار- [vār]; -ذده [anda]; -بان [bān]. Yarim affikslar: -دار [dār]; -بخش [bahš] va boshqalar. So'zimiz isboti uchun shaxs oti yasovchi چى - [či] affiksiga misollar keltiramiz:

توپ	[tup]	to'p, pushka	چى+توپ	[tupči]	to'pchi (artilleriya chi)
شكار	[šekār]	ov	چى+شكار	[šekārči]	ovchi
ماشى ندار	[māšindār]	pulemyot	چى+ماشى ندار	[māšindārči]	pulemyotchi
نشان	[nešān]	nishon	چى+نشان	[nešānči]	nishonga oluvchi
هلی كوپ تر	[helikoptar]	vertolyot	هلی كوپ تر چى+	[helikoptarči]	vertolyot uchuvchisi
گارد	[gard]	gvardiya	چى+گارد	[gardči]	gvardiyachi
بى سېم	[bisim]	simsiz, telegraf	چى+بى سېم	[bisimči]	radioaloqachi

3) Dariy tili harbiy terminologiyasida murakkab terminlar (qo'shma so'zlar) ham keng qo'llaniladi. Agar so'zlar ikki yoki undan ortiq leksik morfemalarning qo'shilishidan yasalgan bo'lsa, bunday so'zlar "qo'shma so'z" (مركب واژه)¹²² deyiladi.

Masalan:

ندان سرقومما	[sarqomāndān]	bosh qo'mondon
سېم سالار	[sepahsālār]	qo'mondon
مذنب صاحب	[sāhebmansab]	ofitser
تخریبكار	[taxriybkār]	qo'poruvchi
دوست وطن	[vatandust]	vatanparvar
سردوشه	[sarduša]	pogon

va h.k.

Qo'shma so'zlarning barchasi kelib chiqishidan qat'iy nazar tegishli guruhlariga bo'linadi. Guruhlarga taqsimlash esa "tarkibiy qismlar (komponentlar) orasidagi munosabatlar" belgisi asosida amalga oshiriladi:

a) determinativ qo'shma so'zlar (determinativlar):

Determinativlar guruhdagi so'zlar «ot + ot», «ot + sifat», «son + ot», va h.k. modelida yasaladi:

توپخانه	[tupxāne]	artilleriya
نېم تانه	[nimtane]	kurtka
تېر هفت	[hafttir]	to'pponcha, pistolet
اک سله دو	[duaksala]	ikki o'qli

b) kopulyativ qo'shma so'zlar (kopulyativlar)

¹²²Куронбеков А. Форс тили лексикологияси. Тошкент.. ТошДШИ.2009-1206

Kopulyativlar bir-biri bilan teng ikki va undan ortiq negizlar qo‘shilishidan yasalgan qo‘shma so‘zlardir. Kopulyativ so‘zlar ko‘pincha o‘zaro interfikslar vositasida yoki bevosita birikkan bo‘ladi:

مخابرات و اړط باط	Ertebātomoxāberāt	aloqa
بړگ و ساز	Sāzobarg	aslaha, uskuna

Kuzatuvlarimizga ko‘ra, qo‘shma so‘z usulida yasalgan harbiy terminlar miqdor jihatidan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qo‘shma terminlarning birini jumla tarkibida ko‘rib chiqamiz:

عموم به نمونه اول بين به عد سال سه و خورد که ليد ۱۹۷۰ در سدنگ بين وي خانه په روزه
اگ رديدمعرفی

Og‘ir artilleriya proekti 1970 yilda amalga osha boshladi va uning birinchi namunasi uch yil o‘tib keng ommaga tanishtirildi.

Dariy tili harbiy terminologiyasi boshqa tillar kabi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, dariy tilida boshqa tillarda ekvivalenti bo‘lmagan terminlar bor va ular dariy tilining realliyalarini aks ettiradi. Bunday terminlarga misol tariqasida zamonaviy Afg‘on armiyasidagi harbiy unvonlar va buyruqlar sistemasini kiritishimiz mumkin. Dariy tilidagi mazkur harbiy leksika hozirda hech bir tilda mos ekvivalentga ega emas. Masalan:

Afg‘oniston qurolli kuchlari harbiy unvonlari:

Generallar unvoni		
لر شامآ	[māršāl]	marshal
جنرال ستر	[star janrāl]	armiya generali
جنرال گورد	[dagarjanrāl]	general-polkovnik
جنرال تورن	[turanjanrāl]	general-leytenant
جنرال بريد	[briydjanrāl]	general-mayor
Katta ofitserlar unvoni		
دگروال	[dagarvāl]	polkovnik
دگرمين	[dagarman]	podpolkovnik
جگرن	[jagran]	mayor
Kichik ofitserlar unvoni		
تورن جگ	[jag turan]	katta kapitan
تورن	[turan]	kapitan
من بريدل مری	[lo‘mraybriydman]	katta leytenant
من بريدل وم د	[dovvombriydman]	leytenant
بريدمن ري م د	[draymbriydman]	kichik leytenant
Serjant va askarlar unvoni		
قدماتر مشر سرپک (بريش لوی)	[sarpakmešr-e qadamdār (luybriyš)]	starshina
مشر سرپک (بريش جگ)	[sarpakmešr (jag briysh)]	katta serjant
مشر سرپک معاون (بريش)	[moāven-e sarpakmešr(briyš)]	serjant
مشر پرک (پار بيش)	[parkmesh (briyšeār)]	kichik serjant

مشر دلا گى	[delgaymešr]	yefreytor
سر د از عد س كر،	[askar, sarbāz]	askar, jangchi

Hozirgi dariy tili harbiy terminologiyasining xususiyati uning leksikasining asosiy qismi o‘zining lug‘at fondi va chet tillardan o‘zlashgan o‘zlashmalar hisobiga kengayib boyib borishidadir. Hozirgi dariy tili harbiy terminlari fonetik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilishni va ilmiy tekshirish ishlari, alohida ma'ruzalar, harbiy terminlar bo‘yicha qator qo‘llanmalar, lug‘atlar yaratishni talab qiladi.

Annotation: The article analyzes the metter of characteristics of military terms in dari, at the same time the meaning of military terms in dari language.

Key words: Dari language, lexis, military sphere, term, military units, affixation, composition, lexicalization.